

## ATROF-MUHIT O'ZGARISHIGA INSON OMILINING TA'SIRI

**Orifjon Xolmirzayev**  
*Impuls tibbiyot instituti rektori*  
**Abduqayumov Yusufbek**  
*Impuls tibbiyot instituti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Insonni atrof-muhit va uni o'rabi turgan tabiat bilan munosabati asosiy ekologik muammolardan biridir. Inson yashash jarayonida atrof-muhitga doimo o'z ta'sirini o'tkazadi.

**Kalit so'zlar:** atrof-muhit, aholi salomatli, atrof-muhitni muhofaza qilish, astma, bronxit va allergik kasalliliklar;

Ayniqsa, bugungi kunda bu ta'sir juda sezilarli bo'lib qolgan. Yer yuzida aholi sonining tez sur'atlar bilan o'sib borishi natijasida, aholi ehtiyojlarini ta'minlash hamda qondirish uchun ishlab chiqarish korxonalari sonining muttasil oshib borishi, tabiiy resurslarni ko'plab ishlatilishi, transport vositalari soni va turlarining ko'payib borishi kuzatilmoqda. Buning oqibatida, insonni atrof-muhitga ayovsiz ta'sirida tabiatdagi antropogen o'zgarishlar ko'lami kengayib bormoqda.

Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash va xavfsizligini oshirish, ekologik osoyishtalikni ta'minlash, chiqindilarni qayta ishslash tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashga muhim siyosiy masala sifatida qaralmoqda. Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar barpo etilib, Orolbo'yidagi shahar va tumanlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar jadal amalga oshirilmoqda. Atrof-muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida chiqindilarni yig'ish va qayta ishslash bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, chiqindi tizimini tartibga solish – hayotimiz, sog'lig'imiz uchun eng muhim vazifalardan biri. Bu inson salomatligi va xavfsizligi, millat kelajagi bilan bog'liq dolzarb masaladir.

bugungi kunda dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'ngi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari yildan-yilga ko'payib boryapti. Ayniqsa, XXI asrda maishiy chiqindilar hajmining o'sishi ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ishlab chiqarish sohalarini zamонавиу texnologiyalar bilan jihozlash va qayta jihozlash natijasida atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdori 2,1 martaga, oqava suvlarning tashlanishi 2 martaga kamaygan.

Jumladan, mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar chiqindilarning fuqarolar hayotiga va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish hamda chiqindilar hosil bo'lismeni kamaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur hujjatlar chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish borasida aniq vakolatli davlat organini belgilash, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, sohada faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga shart-sharoit yaratib berish, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishslash, maishiy ro'zg'or chiqindilarini utilizatsiya qilishni tashkil etgan holda atrof-muhitga, insonlar sog'lig'i va mulkiga salbiy ta'sirini kamaytirish bilan bog'liq me'yirlarni belgilanishiga xizmat qilayotir.

Chiqindilarni qayta ishslash sohasini rivojlantirishda iqtisodiy usullardan foydalanishni yo'lga qo'yish, xorijiy investitsiyalarga yo'l ochish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hisobiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslarini mustahkamlash juda muhim.

Ayrim zavodlar havoga me'yordan ortiqcha tashlanma chiqarib, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday holatlar fuqarolarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Bu borada ham mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, har bir hudud havo ifloslanishini tezkor tahlil qiladigan mobil laboratoriyanlar bilan ta'minlanayotir. Atrof-muhitga yuqori va o'rta xavfli yirik sanoat korxonalarida zamonaviy lokal tozalash inshootlarini o'rnatish va mavjudlarini modernizatsiya qilish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash va xavfsizligini oshirish, ekologik osoyishtalikni ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda shifokor ko'rigiga kelayotgan bemorlarning aksariyat qismi, nafas yo'llaridagi muammolar bilan shikoyat qilishadi. Ayniqsa astma, bronxit va allergik kasalliklarning nafaqat kattalar balki bolalarda ham tez-tez uchrab turishi kishini havotirga soladi.

Bundan tashqari dunyo bo'ylab yoshlar orasida saratonga chalinish havfi keskin ortmoqda. Amerikalik shifokor Andea Chercherk fikricha «Kasallik yosharmoqda va bunga atrof muxitning g'ayritabiyy o'zgarishi, oziq-ovqat, dori-darmonlar tarkibi yoki biz xali aniqlamagan birliklar sababchidir»<sup>24</sup>

Olimlar 1950 yillarda tug'ilganlarga nisbatan 1990-yilda tug'ilgan insonlarda saratonga chalinish havfi 4 barobar ortganini ma'lum qildi

Butun dunyo boyicha global muammoga aylangan ekalogiya hamda atrof muhit ifloslanishi mamlakatimiz hududini ham chetlab o'tgani yo'q. Ayniqsa poytaxt Toshkent havosidagi ifloslanish jahon sog'liqni saqlash tashkiloti me'yorlaridan bir necha barobar ortib ketib, saraton va astma kasalliklarini keltirib chiqarishi hafi yuqori bo'lgan havo deya baholanmoqda.

<sup>24</sup> Andea Chercherk

### 2015–2023-yillarda Toshkent shahridagi changning yillik konsentratsiyasi

Shahar	Kuzatilgan yillar								
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Toshkent	0,7	0,7	1,3	1,3	0,7	0,7	1,3	0,9	0,6

Tibbiyot olami kasallik simptomlari bilan emas,balki uning kelib chiqishi sabablari bilan kurashadi.Shunga ko'ra,allergik va onkologik muammolarning asl sababi bo'lgan faktorlar :tartibsiz qurilish ishlarining olib borilishi,avtomobillar uchun sifatsiz yoqilg'idan foylanishi va ayniqsa daraxtlarning kesilishiga qarshi kurashmas ekanmiz yuqoridagi kasalliklar bilan og'ruvchi bemorlar soni ortib boraveradi.

Havoning shunday ahvolga olib keldiki,afsuski bugungi kunga kelib musaffo osmonimiz bilan ham maqtana olmaymiz.

O'z o'rnidida ekalogiyani,musaffo havoni yaxshilash uchun dunyo amaliyotidan foydalanish lozim.

Ayniqsa matabni tamomlayotgan har bir bitiruvchi mahsus belgilangan hududga 1donadan istalgan turdag'i daraxt tupini eksa,bu unga bepul ta'limni taminlagan davlati uchun ulkan minnatdorchilik belgisi va ekalogiyaga,musaffo havo uchun qo'shgan hissasi bo'ladi.

Bizku yashab olarmiz,lekin bu ketishda farzandlarimiz,nabiralarimizga qiyin bo'ladi. Agar bugundan daraxtlar biz uchun qayg'urayotganini tushunib yetmasak,ertasiga kech bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, havoning ifloslanishi inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu nafas olish muammolari, yurak-qon tomir kasalliklari, reproduktiv muammolar, nevrologik ta'sirlar va psixologik ta'sirlarga olib kelishi mumkin. O'zimiz va kelajak avlodlar salomatligini himoya qilish uchun havo ifloslanishini kamaytirish bo'yicha choralar ko'rishimiz muhim.Hukumatlar, sanoat tarmoqlari va shaxslar emissiyalarni kamaytirish, toza energiyani targ'ib qilish va havo sifatini yaxshilash va sog'lig'imizni saqlash uchun barqaror amaliyotlarni qabul qilish uchun birgalikda ishlashi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ишмухамедов Р.Ж. Инновацион технологиилар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. Услубий тавсиялар. Тошкент – 2004
2. Ergasheva X.Yu. How to start teaching children second languages at home// Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. –Namangan, 2020. Maxcyc сон. – Б. 407-410. (13.00.00. № 30)

3. Ergasheva X.Y. Teaching second language to Very Young Learners // Pedagogical Sciences/colloquim-journal#13(24) ISSN 2520-6990, December, 2018. – Pages 18-20.

4. Ergasheva X.Y. Communicative approach to second language teaching in preschool education // Horison: Journal of Humanity and Artificial Intelligence#13(24) ISSN 2835-3064. 2023, – Pages 499-502. (Global Impact Factor 9.7)

5. Umarov A.A. Maktabgacha ta'limda til o'rgatish konsepsiya va tamoyillari // Pedagogika nazariyasi// "Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Namangan, ISSN 18-19-23./ 6 bet, 18 May 2023 yil.

6. Umarov A.A. Pedagogik nazariya va amaliyotda bo'lajak o'qituvchining axborot kompetentsiyasini rivojlantirish konsepsiysi // Guliston Davlat Universitet Axborotnomasi// Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2023. № 2, UDC 378.147 / 254-258 betlar, 2023-yil 30-iyun.